

BO‘LAJAK OFITSERLARDA KASBIY MOTIVATSIYA SHAKLLANISHINING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK OMILLARI

Saidov Xusniddin Axtam o‘g‘li

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Xizmat faoliyatini
tarbiyaviy-psixologik ta‘minlash yo‘nalishi 3-bosqich kursanti

Annotatsiya: Xorijiy tadqiqotlarda ushbu jarayon keng o‘rganilgan bo‘lib, u harbiy xizmatning yuqori stressli sharoitida (jangovar topshiriqlar, tezkor qaror qabul qilish, jamoaviy harakatlar, hissiy barqarorlik) ofitserlarning chidamliligi, tez fikrlash qobiliyati va rahbarlik samaradorligi bilan bevosita bog‘liq ekanligi aniqlangan. Kasbiy motivatsiyaning shakllanishini o‘rganishda xorijiy olimlar uni ijtimoiy, falsafiy va psixologik jihatlar bilan o‘zaro bog‘liq holda izohlaydilar. Quyida ushbu jihatlar harbiy kontekstda batafsil sharhlanadi. Bo‘lajak ofitserlarda kasbiy motivatsiyaning shakllanishi harbiy sohada strategik ahamiyatga ega bo‘lib, bu jarayon nafaqat shaxsning individual psixologik rivojlanishiga, balki milliy xavfsizlik tizimining barqarorligi va harbiy xizmatning samaradorligiga ham bevosita ta‘sir ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: motivatsiya, harbiy xizmat, milliy xavfsizlik, samaradorlik, individual rivojlanish, ijtimoiy omil.

O‘quv-kasbiy motivatsiya, o‘quv jarayonining natijaviy jihat, harbiy-kasbiy tayyorgarlik darajasi, shaxsning maqsadga yo‘naltirilganligi va ijtimoiy faoliyati o‘rtasida uzviy korrelyatsion bog‘liqlik aniqlangan. Bu degani, o‘quvdagi muvaffaqiyat, kasbiy tayyorlik va motivatsion barqarorlik o‘zaro bir-birini kuchaytiruvchi tizimni tashkil etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak ofitserlarning o‘quv va xizmat faoliyatidagi motivatsion komponent darajasiga qaysi omil tashqi (ta‘lim muhitining o‘ziga xosligi, moddiy rag‘bat, lavozimda o‘sish imkoniyati, jamoa tomonidan e‘tirof, kasb nufuzi) yoki ichki (o‘zini ro‘yobga chiqarish ehtiyoji, faoliyatning ijtimoiy foydasini anglash, o‘qish

jarayonining o‘zidan olinadigan qoniqish) ko‘proq ta’sir ko‘rsatishini qat’iy tarzda bir yoqlama aniqlab bo‘lmaydi. Biroq ishonch bilan aytish mumkinki, ta’lim muassasasining tashkiliy, psixologik va ijtimoiy xususiyatlari kursantlarning o‘quv-kasbiy motivatsiyasi xususiyatlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Harbiy muhitning reglamentlashtirilganligi, rahbar-jamoa tizimi, ijtimoiy rag‘bat mexanizmlari va intizomiy madaniyat motivatsion jarayonning shakllanishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi [8].

Ijtimoiy nuqtai nazardan, kasbiy motivatsiya jamiyatning harbiy xizmatga nisbatan qarashlari, ijtimoiy qadriyatlar va normalar bilan uzviy bog‘liq. Harbiy kasbning jamiyatdagi nufuzi, oila va yaqinlarning fikri, jamoaning e’tibori kursantning motivatsion tizimida muhim o‘rin egallaydi. Lester (1983) ta’kidlaganidek, harbiy xizmatni tanlashda shaxs ko‘pincha ijtimoiy ta’sirlar oila, do‘stlar va jamoatchilik fikri ta’sirida qaror qabul qiladi. Ijtimoiy sharoitdan kelib chiqib, rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy barqarorlik, ish o‘rni kafolati kabi tashqi motivlar ustun bo‘lsa, rivojlangan davlatlarda altruistik motivlar ya’ni “jamiyatga xizmat qilish” va “xalq ishonchini oqlash” kabi ma’naviy motivlar ustuvor bo‘ladi. Shunday qilib, ijtimoiy jihatdan motivatsiya shaxsiy intilishlarning jamiyat qadriyatlariga bilan uyg‘unlashuvi natijasida shakllanadigan jarayon bo‘lib, harbiy ofitserlarda bu jarayon ijtimoiy mas’uliyat hissi orqali mustahkamlanadi [5].

Falsafiy nuqtai nazardan, kasbiy motivatsiya shaxsning hayotiy maqsadlari, qadriyatlar tizimi va o‘zini ro‘yobga chiqarish ehtiyoji bilan bog‘liq. Maslouning (1954) ehtiyojlar ierarxiyasiga ko‘ra, inson o‘z ehtiyojlarini qondirib borar ekan, oxir-oqibat “o‘zini ro‘yobga chiqarish” (self-actualization) bosqichiga yetadi. Harbiy sohada bu bosqich vatanparvarlik, mas’uliyat, fidoyilik, va burch hissi orqali ifodalanadi. Shu ma’noda, harbiy ofitser uchun motivatsiya hayot mazmuni va maqsadining kasbiy faoliyat bilan uyg‘unlashgan holatidir. Herzbergning (1959) “Ikki omilli motivatsiya nazariyasi” (Two-Factor Theory) bu fikrni yanada chuqurlashtiradi. Unga ko‘ra, motivatsiyani:

- ichki omillar (muvaffaqiyat, kasbiy o‘sish, tan olinishi, o‘zini qadrlash),
- tashqi omillar (ish haqi, sharoit, nazorat, barqarorlik) tashkil etadi [6].

Bu ikki omil oʻrtasidagi muvozanat shaxsning kasbiy maʼno va hayotiy mazmunni uygʻunlashtirish darajasini belgilaydi. Harbiy ofitser uchun bu muvozanat “vatan oldidagi burch” va “shaxsiy oʻsish” oʻrtasidagi uygʻunlikda namoyon boʻladi.

Psixologik jihatdan, kasbiy motivatsiya shaxsiy xususiyatlar (temperament, emotsional barqarorlik, oʻziga ishonch), kognitiv jarayonlar (fikrlash, qaror qabul qilish, stressni boshqarish) va motivatsion mexanizmlar bilan belgilanadi. Dweck (2006)ning “Oʻsish tafakkuri” (Growth Mindset) nazariyasiga koʻra, muvaffaqiyatga yoʻnaltirilgan shaxslar xatolik va qiyinchiliklarni oʻsish imkoniyati deb qabul qiladi. Bu yondashuv harbiy sohada psixologik bardoshlilikni oshiradi. Ryan va Deci (2020)ning Oʻz-oʻzini belgilash nazariyasi (Self-Determination Theory SDT) esa motivatsiyaning uchta asosiy psixologik ehtiyojga tayanishini koʻrsatadi:

1. Avtonomiya (oʻz-oʻzini boshqarish) shaxs oʻz qarorlarini mustaqil qabul qilish imkoniyatiga ega boʻlishi;
2. Kompetensiya (ustalik hissi) oʻz kasbiy mahoratini anglash va oshirish;
3. Bogʻlanish (ijtimoiy aloqadorlik) jamoada oʻz oʻrnini topish va oʻzini jamoaning muhim aʼzosi sifatida his etish [4].

Kasbiy motivatsiyaning shakllanishida quyidagi psixologik omillar yetakchi ahamiyatga ega:

- Shaxsiy xususiyatlar emotsional barqarorlik, chidamlilik, oʻzini nazorat qilish;
- Kognitiv jarayonlar tanqidiy fikrlash, riskka tayyorlik, tez qaror qabul qilish qobiliyati;
- Ijtimoiy psixologik omillar jamoa birdamligi, oʻzaro ishonch, rahbar va kursantlar oʻrtasidagi muloqot sifati;
- Motivatsion mexanizmlar ichki qoniqish, kasbiy maʼno, vatanparvarlik qadriyatlari [3].

Zoya Sheftalovich (2022) oʻz tadqiqotida harbiy jamoalarda doʻstlik, ishonch va ijtimoiy birdamlik motivatsion barqarorlikni taʼminlaydigan eng muhim psixologik resurslar ekanini taʼkidlaydi.

Kasbiy motivatsiya faqat psixologik hodisa emas, balki falsafiy mazmunga ega jarayondir. Shaxs o'z kasbiy faoliyatida hayotiy maqsadini anglab yetar ekan, o'zini jamiyat, davlat va Vatan xavfsizligi uchun foydali deb his qiladi. Shu jarayon orqali shaxs "ichki burch hissi"ni shakllantiradi. Bu esa harbiy ofitserni oddiy ijrochi emas, balki fidoyi, mas'uliyatli va axloqan barqaror shaxs darajasiga olib chiqadi. Bo'lajak ofitserlarda kasbiy motivatsiyaning shakllanishi ko'p darajali psixologik tizim bo'lib, unda ijtimoiy ta'sir, falsafiy maqsad va psixologik ehtiyojlar o'zaro uzviy aloqada faoliyat ko'rsatadi. Ijtimoiy jihatdan, u jamiyatning harbiy kasbga bergan bahosi bilan belgilanadi [2]. Falsafiy jihatdan, u shaxsning hayot ma'nosi va qadriyatlari bilan uyg'unlashadi. Psixologik jihatdan, u o'zini anglash, avtonomiya, chidamlilik va ustalik hissi orqali mustahkamlanadi. Harbiy kontekstda bu jarayon intizom, sadoqat, fidoyilik va psixologik bardoshlilikni rivojlantiruvchi asosiy psixologik mexanizm sifatida qaraladi. Motivatsiya shaxsning ehtiyoj, qadriyat va maqsadlari asosida xulq-atvor variantlarini tanlash va qaror qabul qilish jarayoni. Harbiy-huquqiy xizmatda motivatsiya ijtimoiy ma'noga ega maqsadlar (jamiyat tinchligi, qonuniylik, fuqarolar ishonchi) bilan shaxsiy omillar (o'sish, mahorat, ijtimoiy maqom) o'rtasida dinamik muvozanatni talab qiladi. O'quv davrida kursantlarda kasbiy ma'no, qadriyatlar tizimi, shaxsiy intilishlar va xizmatga sadoqat bosqichma-bosqich shakllanadi [7].

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kursantlarning o'quv faoliyati ko'p motivli (polimotivatsion) tuzilmaga ega. Bunda ijtimoiy motivlar jamoa sha'ni, axloqiy javobgarlik, rahbarlik ishonchini oqlash kabi omillar kasbiy shakllanishning barcha bosqichlarida yetakchi rol o'ynaydi. Kuzatishlarga ko'ra, o'qishga bo'lgan motivatsiya pastki kurslardan yuqori kurslarga o'tishda asta-sekin pasayadi, biroq bitiruv bosqichida nisbatan barqarorlashadi. Shu bilan birga, dastlabki (adaptatsion) bosqichdan ixtisoslashgan (kasbiy identifikatsion) bosqichga o'tish jarayonida harbiy-kasbiy yo'nalganlikning ijobiy o'sish tendensiyasi qayd etiladi. Boshqacha aytganda, kursantlar dastlab o'qishni tashqi omillar bilan bog'lab baholaydilar (moddiy rag'bat, jamoa fikri, nufuz), keyinchalik esa o'qishning o'zida kasbiy ma'no topadilar [1].

O'zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligi sohasida olib borilayotgan islohotlar Milliy gvardiya faoliyatiga miqdoriy va sifat jihatdan yangi talablarni qo'yadi. Zamonaviy xavfsizlik muhitida Milliy gvardiya xodimlari profilaktika, tezkor patrullik, qo'riqlash, maxsus tadbirlarni o'tkazish, favqulodda holatlarda aholini muhofaza qilish, shuningdek, axborot-psixologik barqarorlikni ta'minlash kabi vazifalarni bajaradi. Buning uchun oliy harbiy-huquqiy ta'lim bosqichidayoq o'quv-kasbiy motivatsiyasi barqaror, ichki ma'no va kasbiy sadoqati yuqori bo'lgan kursantlar tayyorlanishi zarur. Amaliy kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, ayrim bo'linmalarda yuqori kurslarga kelganda o'qishga qiziqish pasayishi, intizomiy xatolar, kasbiy moslik muammolari va xizmatni davom ettirish istagining susayishi uchraydi. Bu hol o'quv jarayonining real xizmat vazifalariga bog'lanish darajasi, rag'bat va talab muvozanati, hamda yashash-xizmat sharoitlariga moslashuv bilan chambarchas bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Лукьянов В.В., Сороколетова И.Е. К истории термина «выгорание». / Выгорание и профессионализация [Текст]: сб. науч. Тр. / под ред. В.В. Лукьянова, А.Б. Леоновой, А.А. Обознова, А.С. Чернышева, Н.Е. Водопьяновой; Курск, гос. Ун-т.- Курск, 2013. С. 114-123.
2. Майсак Н.В. Психологические особенности деформации личности кадровых офицеров / Н.В. Майсак, С.В. Михеев // Общество и право. – 2011. – №1. – С. 242–248.
3. Мачульская И.А. Феномен эмоционального выгорания военнослужащих в процессе их профессиональной деятельности / И.А. Мачульская, Р.В. Беляев, В.Н. Машин // Территория науки. – 2015. – №5. – С. 72–77.
4. Чуприкова Е.В. Специфика проявления эмоционального выгорания у военнослужащих // Образование и наука в современных реалиях: материалы VIII Междунар. науч.-практ. конф. (Чебоксары, 22 февр. 2019 г.) / редкол.: О.Н. Широков [и др.] – Чебоксары: ЦНС «Интерактив плюс», 2019. – С. 148-150.

5. Кобытова Г.С. Эмоциональное выгорание как проявление защитного поведения в профессиональной деятельности // Фундаментальные исследования. – 2005. – № 4 – С. 29-32.
6. Водопьянова Н.Е. Стратегии и модели преодолевающего поведения // Практикум по психологии менеджмента и профессиональной деятельности / под ред. Г.С.Никифорова, М.А.Дмитриевой, В.М.Снеткова. - СПб., 2001. - С.78-83.
7. Зеер Э.Ф., Сыманюк Э.Э. Кризисы профессионального становления личности // Психологический журнал. - Т. 18. - 1997. - № 6. - С. 35-44.
8. Мачульская И.А., Беяев Р.В., Машин В.Н. Психологические особенности военно-профессиональной ориентации военнослужащих по призыву // Территория науки. 2015. № 2. С. 40-46.